



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



Zarafshon

www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) <https://www.instagram.com/zarafshon.uz/>

2025-yil 11-yanvar, shanba,
4 (24.030)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yaxshiga
ipak ilashur,
yomonga
tikan

2024-yil viloyatimiz uchun iqtisodiy jihatdan samarali bo'ldi. Qurilish, sa-noat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, umuman, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'sish kuzatildi. Qolaversa, keyingi yillarda Samarqand yirik turizm markaziga aylanib bormoqda. Bu albatta, xorijiy investorlar e'tiborini tortmay qolmaydi. Shuningdek, nufuzli davlatlarga tashriflar, biznes forumlar, xorijiy delegatsiyalarning yurtimizga tashrifi natijasida viloyatimizga ja'b etilayotgan investitsiyalar miqdori yildan-yilga ortib bormoqda.

XORIJJIY INVESTITSIYALAR SALMOG'I OSHADI

Birgina 2024-yilda qariyb bir milliard dollar xorijiy investitsiya mablag'i o'zlashtirilib, 2023-yil bilan solishtirganda, 368 million dollar ko'p yoki 163 foizni tashkil qilgan.

Davlatlar kesimida tahsil qilinganda, ja'b etilgan investitsiyalar asosan Xitoy (400,3 million dollar), Rossiya (72,1 million), Turkiya (63,8 million), Kipr (78,4 million), BAA (64 million), Niderlandiya (62,3 million) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Bunday ijobji o'sish investorlar uchun har tomonlama qulay ishbilarmonlik muhit yaratilgani, tarmoqlararo hamkorlikni rag'batlantrish va mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar va liberalizatsiya siyosati samarasidir. Xorijiy investitsiyalarning ko'payotgani o'z navbatida infratuzilmani yaxshilash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va ish o'rinnari yaratishiga ijobji ta'sir ko'rsatmoqda.

Misol uchun, o'tgan yil Jomboy tumanidagi "CCI SAMARKAND LIMITED" MChJ tomonidan umumiy qiymati 78,4 million dollar bo'lgan "Coca-cola" ichimligi hamda salqin ichimliklar ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilishi natijasida 200 ta yangi ish o'rni yaratilib, qo'shimcha 15 million dollarlik mahsulot eksport qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Samarqand shahridagi "Azia metall prof" MChJ QK tomonidan po'lat eritish va qora metall ishlab chiqarish hamda maishiy texnika va avtomashinalar uchun tunuka list tayyorlashni tashkil etish loyihalari doirasida 161 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirildi.

Jalb etilgan investitsiyalarning 605,6 million dollari sanoatda, 224,1 million dollarli xizmat ko'rsatish, 89,5 million dollar qishloq xo'jaligiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, 2024-yilda xorijiy investitsiya ishtirokidagi loyihalari doirasida umumiy qiymati 260,1 million dollar bo'lgan 16 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 1268 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Misol uchun, Urgut tumanida Rossiya bilan hamkorlikda umumiy qiymati 5 million dollarlik "Urgut auto center" MChJ tomonidan savdo markazi tashkil etish loyihasi ishga tushirilib, 20 ta ish o'rni yaratildi. Past Darg'om tumanida Eron Islom Respublikasi bilan hamkorlikda umumiy qiymati 5,2 million dollarlik "Ayisha AR" MChJ qo'shma korxonasi negizida parrandachilik, issiqxona va baliqchilik xo'jaligini tashkil etish loyihasi ishga tushirilib, 35 ta ish o'rni ochildi.

2025-yilda viloyatimizda uch milliard dollar xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirilishi



rejalshtirilgan. Shundan 1,4 milliard dollar manzilli shakllantirilgan loyihalor doirasida va 1,6 milliard dollarli istiqbolli loyihalor doirasida ja'b etilishi kutilmoqda.

Davlatlar kesimida oladigan bo'lsak, Xitoydan 1 milliard 78 million dollar, Turkiyadan 135,3 million dollar, Rossiyanan 91,5 million dollar, BAA dan 66 million dollar sarmoya ja'b etish ko'zda tutilgan.

Misol uchun, Bulung'ur tumanidagi "Yangi Osiyo Xalqaro Biofarmatsevtika" xorijiy korxonasi negizida qiymati 100 million dollar bo'lgan tibbiy biopreparatlari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi doirasida 50 million dollar o'zlashtiriladi. Past Darg'om tumanidagi "Menem beton" qo'shma korxonasi tomonidan qiymati 75 million dollar bo'lgan temir beton va beton bloklari ishlab chiqarish klasterini tashkil etish loyihasi doirasida 65 million dollar mablag' o'zlashtirilishi belgilangan.

Viloyatning investitsiya salohiyatini yanada oshirish maqsadida, joriy yilda xorijiy davlatlarga biznes tashriflar amalga oshirilishi, logistika, IT, innovatsion va yuqori texnologiyalar sohasida yangi kelishuvlarga erishish rejalshtirilgan.

Xorijiy investitsiyalarning ortishi Samarqandning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'yynadi. Mulkorlik va tadbirdorlik muhit davlat va xususiy sektor hamkorligi, yangi ish o'rinnari yaratish va rivojlantirish imkoniyatlari viloyatimiz iqtisodiy taraqqiyotida yangi sahfalar ochadi.

Oybek HAMROYEV,
viloyat hokimining o'rinososari –
investitsiyalar, sanoat va savdo
boshqarmasi boshlig'i.

Ayrim poliklinikalar universitet klinik bazasiga o'tkazildi

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 29-noyabrdagi "Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirdorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarordan tibbiyotga doir masalalar ham o'rinn olgan.

Xususan, qarorga ko'ra, Samarqand shahar tibbiyot birlashmasiga qarashli 1-, 3- va 8-soni oilaviy poliklinikalar hamda Qo'shrabot tumanidagi Jo'sh oilaviy poliklinikasi, Oqchoboy, Urganji, Chimmox, Toz va Jonbulqo oilaviy shifokorlik punktlarini Samarqand davlat tibbiyot universitetiga klinik baza sifatida foydalanish uchun o'tkazish belgilandi. Ushbu oilaviy poliklinikalar va shifokorlik punktlari kasalliklarni



aniqlash va davolash bo'yicha zamonaviy davo-lash-diagnostika asbob-uskulalari bilan jiho-zlanadi, ularda universitet talabalari amaliyoti tashkil etiladi, aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamni yanada kengaytiriladi.

Qarorda ko'zda utilayotgan bu kabi tadbirdar tufayli chekka tuman birlamchi tibbiyot tizimi bilan universitetimiz hamkorligi doimiy bo'ladi, ushbu tibbiyot muassasalarini zamonaviy uskulalar bilan ta'minlash ham universitet tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, qarorda Samarqand davlat tibbiyot universiteti qoshidagi sport tibbiyoti va rehabilitologiya ilmiy-tadqiqot instituti 200 o'rinni sog' omolashtirish va davolash majmuasini barpo etish ko'zda tutilgan.

Keyingi yillarda universitet faoliyatida bu kabi o'zgarish va yangiliklar ko'p amalga oshirilmoqda.

Xususan, universitet bitiruvchi bosqich talabalari uchun poliklinikalar va klinik bazalarda 6 oylik malakaviy amaliyat ko'rinishidagi subordinatura joriy qilindi. Universitet tarkibida sport tibbiyoti va rehabilitologiya ilmiy-tadqiqot instituti, mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-tekshirish instituti va uning klinikasi, neyro-xirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi, immunologiya, allergologiya va inson genomikasi ilmiy markazi faoliyati yo'iga qo'yildi.

Tibbiyot sohasi va tibbiy olyi ta'lindagi islohotlar samarasini bo'lgan bu o'zgarishlar pirovard maqsad – aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nargiza YARMUHAMEDOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti prorektori, tibbiyot fanlari doktori.

Mahallamizga aholining roziligidisiz nom berilgan

Murojaat

Oqdaryo tumanidagi Turon mahallasining avalgi nomi Arpaariq edi. Arpaariq tarixiy nom bo'lib, mahallamizda shu nom bilan ataluvchi ariq mavjud. Arpaariqning o'zi bizga qanchalik qadrli bo'lsa, nomi ham shunday.

Biroq 2017-yilda mahallamizning nomi aholining fikri va takliflarisiz Turonga o'zgartirildi. Mahalla ahli esa bundan norozi. To'g'ri, Turon tarixiy geografik atama bo'lishi mumkin, lekin bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yo'q. Xo'sh, mahalla nomini o'zgartirish kerak bo'lsa, nega unda shu hudud fuqarolarilari bilan maslahatlashilmasdi, aholining fikri so'ralmad? Vaholanki, «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik obyektlarga nom berishda mahallalik aholining fikrini hisobga olish belgilangan.

Mazkur masala yuzasidan tuman hokimligiga bir necha marta murojaat qildik. Murojaatimiz viloyat hokimligi yuborilishi va komissiya qaroridan so'ng mahallaning nomi "Arpaariq"qa o'zgartirilishi aytilgan edi. Ammo masha suvga cho'kkon tosh kabi jimb ketdi. Darvoqe, xalq tilida "Shahidtepa" nomi bilan atladicigan mahallamiz qabristoniga ham ikki yil oldin "Turon" nomi berilgan ekan. Bundan ham yaqinda xabar topdik. Xo'sh, yashab turgan makonimizga yangi nom berila-

diyu, nega biz bilmaymiz?

Mavridi kelganda aytay, yon-atrofimizdagi qishloqlarning ham tarixiy nomi o'zgartirilib, bir xil nomlar ko'p berilgan. Misol uchun, Toshkent-Buxoro magistrallari yoki yoqasida joylashgan Qarqaral qishlog'ining nomi Zarbdorga, Zarafshon daryosining bo'linish irmog'i – Qoradaryo yoqasidagi Sarka qishlog'ining nomi esa Mustaqillikka o'zgartirilgan. Bu bilan tumanimizda shu nomdag'i bir xil qish-

loqlar soni ko'paydi, xolos. Bizningcha ayrim qadimiy geografik nomlar ahamiyatini yo'qtomsligi uchun o'sha hudud aholisi bilan kelishib, o'zgartirish yoki o'z holicha kelajak avlodga yetkazgan ma'qul emasmi?

Xullas, mahallamiz va qabristonga nega aholining roziligidisiz Turon nomi berildi, mahallamizning avalgi nomi qaytariladimi, yo'qmi?

To'ychi ESANOV,
Oqdaryo tumani.

Turizm sohasida rejalar qanday?

2024-yilda viloyatga 4 million 715 ming nafar mahalliy va 2 million 523 ming nafar xorijiy sayyoh kelgan. Turizm xizmatlari eksporti 537 million dollarni tashkil etib, xorijlik sayyohlarining Samarqanda qolishi o'rtacha 2,7 kunga tashkil qilgan va har bir sayyoh kuniga o'rtacha 85 dollaridan 250 dollar gacha mablag' sarflagan.

Viloyat turizm boshqarmasi axborot xizmatidan olin-gan ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yil 11 ta mehmonxonalar (677 o'rinn), 39 ta xostel (1064 o'rinn), 74 ta oilaviy mehmon uyi (661 o'rinn) faoliyati yo'iga qo'yilgan. Investitsiya dasturi doirasida qiymati 702 milliard 112 million so'mlik 30 ta loyiha, shuningdek, dasturga qo'shimcha qiymati 777 milliard 120 million so'mlik 64 ta loyiha ishga tushirildi.

Joriy yilda xorijiy sayyohlar sonini 2,55 million nafraga, turizm xizmatlari eksportini 550 million AQSh dollaridan oshirish rejalashtirilgan. Investitsiya dasturi doirasida qiymati 2 trillion 63 billion 290 million so'mlik 30 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, 10 ta mehmonxona, 15 ta umumiy



ovqatlanish va dam olish maskanlari, 3 ta savdo va ko'ngilochar markaz, 2 ta sanatoriya va sog'lomlashtirish markazi tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Diyorbek XOLIQOV.

TADBIRKORLIK

UCHUN QULAY SHAROIT VA KENG IMKONIYATLAR



Tadbirkorlik mahallalarga yangi muhit olib kirdigan, odamlarga shijoat beradigan barcha sohalar lokomotivi hisoblanadi. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinalarining 70-80 foizi aynan ular tomonidan yaratilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sohani rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilgani boisi ham shunda.

Yangilangan Konstitutsiyamizda qulay ishbilarmonlik va investitsiyavi muhit yaratish, tadbirkorlik faoliyatini erkinligining huquqiy kafolatlari yaratildi. Birgina 2024-yilda tadbirkorlar faoliyati uchun g'oyat muhim 5 ta qonun, 101 ta farmon va qarorlar qabul qilingani sohani jadal rivojlanirishga xizmat qilmoqda.

Ilgari kredit, bozor topish, infrazitulma bilan bog'liq muammolar, tinimsiz "tekshir-tekshirlar" sababli 60 foiz yangi tadbirkorlar faoliyati birinchi yilning o'zidayoq to'xtab qolardi. Bugun-chi? Ayni paytda uch yildan ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizni tashkil etib, ilk bor 300 mingtiga yetdi.

O'tgan yillar davomida biznes yuritishiga doir 100 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar qilinib, 33 ta faoliyat turi xabar-dor qilish tartibiga o'tkazilib, ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtrilgan holda, muddatlari qisqartirildi. Ortiqcha

tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xomashyo bo'yicha ko'plab cheklolvara barham berildi.

Berilayotgan imkoniyatlar, yaratilayotgan sharoitlar, qulayliklar evaziga tadbirkorlik subyektlari soni yil sayin oshib, jamiyatda ularning obro'si va mavqeい yanada ortdi. Natijada ichki va tashqi bozorda o'z mustahkam o'rniqa, nufuzi va fikriddagi ega bo'lgan tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi.

Bugungi tahlikali va murakkab sharoitga qaramay, iqtisodiyotimiz barqor o'sib bormoqda. Buni dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar yetakchilari ham e'tirof etapti. Yaqinda Xalqaro valyuta jamg'armasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshganini tasdiqlagani ham ushbu fikrimizning yaqqol isbotidir.

Biznes uchun yo'l, suv, elektr, gaz, temir yo'l kabi infratuzilmalar uchun katta mablag'lar yo'naltirilayotgani yurtimizda tadbirkorlikning keng quloch yoyishi, ishbilarmonlar safi yanada kengayishga turki berdi. Bu esa partiymiz elektorati bo'lgan tadbirkorlar va ishbilarmonlar, kichik biznes vakillarini erkin, samarali faoliyat yuritishiga, faoliyatini kengaytirib, yangi ish o'rinalari yaratishga xizmat qilmoqda.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan videoselektor shaklida o'tkazilgan muloqot davomida ham sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha yil yakunlari va 2025-yilga mo'ljallangan rejalar muhokama qilinib, galadagi muhim vazifalar belgilab berildi.

O'zLiDeP saylovoldi dasturida tadbirkorlar faoliyatiga har qanday noqonuniy usulda aralashganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirish, qonuniy faoliyat yuritayotgan va soliqlarni o'z vaqtida to'layotgan tadbirkorlarni tekshirmsasilikni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Soliq ma'murchiligi tizimini soddalashtrish, barcha tadbirkorlar uchun soliqni to'lash borasida adolatli va teng sharoitlar yaratish, soliq stavkalarining o'zgarmasligini ta'minlovchi siyosat yuritilishi ham partiymizning saylovoldi dasturida asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yig'ilishda qo'yilgan barcha vazifalar partiymiz maqsadlariga uyg'un va hamohangdir.

Diyor HUSANOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

IJTIMOIY KARTA - HUJJAT, HAM TO'LOV VOSITASI BO'LADI

"Ijtimoiy davlat" tamoyili o'z-o'zidan qaror topmaydi. Unga erishishning talab va majburiyatlar borki, bugun davlatimizda ayni sohada katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, ijtimoiy xizmatlar turi va sifatini oshirish chora-tadbirlari shular jumlasidan.

Prezidentning 2024-yil 18-iyuldagagi tegishli qaroriga muvofiq joriy etilgan "Ijtimoiy karta" axborot tizimi ham ayni yo'nalishdagi muhim yangilik hisoblanadi. Bu jarayonda ijtimoiy to'lovlari va subsidiyalar, ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatishini tayinlash, taqdim etish, monitoring qilish va baholashni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish belgilangan.

Ijtimoiy karta bir vaqtning o'zida ham to'lov vositasi, ham fuqaroning ehtiyojmand toifaga mansubligi tasdig'i hisoblanadi. Uning joriy etilishi natijasida 72 turdag'i ijtimoiy xizmat, 76 turdag'i yordam va 200 ga yacin imtiyozlar yagona elektron tizimda umumlashtiriladi. Qog'oz shaklidagi hujjalarni bekor qilinib, vaqt va mablag' tejaladi. Soha to'liq raqamlashtirishi orqali har bir oilaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini aks ettiradigan "Ijtimoiy-raqamli pasport" joriy etiladi.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini to'liq raqamlashtirish maqsadida 2024-yilning 27-dekabrida Vazirlar Mahkamasining 897-ton qarori qabul qilindi. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy



Kartasi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi.

Hujjatga muvofiq, "Ijtimoiy karta" AT ma'lumotlar bazasi ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan fuqarolar va davlat organlari taqdini etgan ma'lumotlar, shu jumladan biometrik ma'lumotlar asosida shakllantiriladi va yuritiladi. Ijtimoiy kartani moliyaviy agent sifatida ishtirok etuvchi respublikaning rezident tijorat banklari taqdim etadi.

Ijtimoiy kartani berish va undan foydalanish uchun arizalar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, "Ijtimoiy karta" mobil ilovasi, "Inson" ijtimoiy xizmat markazlari hamda moliyaviy agentlar orqali topshirilishi mumkin.

Shuhrat ABDUXALIMOV,
viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinosbosari.

2024-yilda Past Darg'om tumanida hududiy investitsiya dasturiga asosan qiymati 484 milliard so'mlik 91 ta loyiha ishga tushirilishi hisobiga 1170 ta doimiy ish o'rni yaratilgan. Davlat investitsiya dasturiga asosan, 14,3 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirilgan. Jumladan, tumanning Kamolot mahallasida joylashgan qo'shma korxona shaklidagi "Aysha ar" korxonasi tomonidan 4,3 million dollarlik xorijiy sarmoya mablag'i hisobiga yirik parrandachilik kompleksi va baliqchilik xo'jaligi ishga tushirilgan. Shuningdek, "Transximikal" qo'shma korxonasi tomonidan kimyo sanoatida foydalilaniladigan yirik hajmli qoplar ishlab chiqarish loyihasi hisobiga 5,4 million dollar xorijiy investitsiya mablag'i o'zlashtirilgan.

LOGISTIKA MARKAZI, QURILISH KLASTERI

PAST DARG'OMDA YANA QANDAY YANGI LOYIHALAR ISHGGA TUSHADI?

- Tumanda xorijiy sarmoyani jaib etish va sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, - deydi tuman hokimingi o'rinosbosari Aziz G'ofurov. - Xususan, Prezidentimizning tegishli qarorlariga muvofiq, tumanimizning Kattaqo'rg'on tumani bilan chegaradosh bo'lgan Chimboyobod massivida 234,3 hektar yer maydonida maxsus sanoat zonasini tashkil etilishi belgilangan. Ushbu sanoat zonasida farmatsetnika, elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, kimyo sanoati, qurilish materiallari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash loyihalarni amalga oshirish hisobiga kamida 500 million dollarlik investitsiya loyihalarni joylashtirish belgilandi. Shu bilan birga, tumanga xorijiy kapitalni jaib etish bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yil iyun oyida Xitoy davlatiga safardan so'ng tumanimizga 9 ta ishbilarmonlar guruhi tashrif buyurdi. Bu guruhlar tarkibidagi 50 dan ortiq yirik kompaniya vakillari tumanimizning salohiyati, imkoniyatlari bilan tanishdi. Eksport ko'satkichilarini oshirish maqsadida bir nechta yangi korxonalar tashkil etildi. Kamolot mahallasidagi "Xan agro" korxonasi shular jumlasiga kiradi. Odamlarimiz takrore ekinga asosan dukkakli ekinlar ekishgani bois bunday mahsulot ko'p yetishtiriladi. Ushbu korxona tomonidan nafaqat tumanidagi, balki boshqa hududlarda yetishtirilgan mosh, Ioviya, kabi dukkakli mahsulotlarni Turkiya va Yevropa davlatlariga eksport qilish yo'iga qo'yildi. Buning natijasida tumandagi 18 million 400 ming dollarlik sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilindi. Bu 2023-yil bilan solishtirilganda, 118 foizni tashkil qiladi.

Balxiyondagi korxonada 2024-yil iyunida "LOGIC AUTOMOTIVE AND ENGINEERING" MChJ xorijiy korxonasi tomonidan avtomobillar uchun ehtiyoj qismalarini ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. Qiymati 5 milliard so'm bo'lgan loyiha doirasida 42 ta yangi ish o'rni tashkil etildi va yiliga o'rtacha 30 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish yo'iga qo'yildi.

Bu yil to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobiga 100 million dollarlik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Bunda qo'shitshuvli ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tabiiy mineral-larga boy suv ishlab chiqarish, qurilish materiallari klasterini tashkil etish, yirik logistika markazi, gidroelektrostansiya tashkil etish va yugori hosilrolikka erishish uchun g'o'zanzing yangi navlarini yaratish bo'yicha loyihalarni tayyorlanmoqda.

Hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati 91,2 million dollarlik 122 ta loyiha ishga tushirilishi va 2 mingda yaqin ish o'rni yaratilishi belgilangan. Davlat investitsiya dasturi doirasida 124 million dollarlik, shundan 100 million dollarli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya mablag'lari hisobiga, 7 ta yangi loyiha ishga tushirilishi va 365 ta yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Keyingi yillarda Kamolot mahallasida tumanning sanoat markaziga aylanib bormoqda. Bir necha yil avval kichik ishlab chiqarish sexi ham bo'Imagan bu mahallada bugun jahon andazalariga mos keladigan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi ko'plab korxonalar bor. "Spector metalra construcsiya" MChJ 2017-yilda tashkil etilgan shunday korxonalaridan biri hisoblanadi. Uch nafar ishchi bilan faoliyat

boshlagan korxonada bugun 120 kishi mehnat qilmoqda. Korxonada metall shit, shkaf, chiqindi o'rna, temir quti kabi mahsulotlar ishlab chiqarish va o'rnatib berish xizmatlari yo'lgan qo'yilgan.

Bundan tashqari, korxona elektr transformatorlari yig'ish va o'rnatib berish xizmatini ko'rsatadi. 2024-yilning 10 oyida ushbu korxona tomonidan 40 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Korxona joriy yilda 500 ming dollarlik "PVX shit va rozentkalar ishlab chiqarish" loyihasini amalga oshirib, 30 dan ortiq yangi ish o'rni yaratishini rejalashtirmoqda.

Bir necha kun oldin shu yerda yana bir yangi korxona - "FORTUNA URGUT MEDICAL" MChJ faoliyat boshladi. Qiymati 5 million dollar bo'lgan korxonada Xitoydan keltirilgan uskunalar yordamida yiliga 200 ming dona shifobaxsh moy, 50 ming dona suyuq sovun, 100 ming dona antitsep-tik vositalar va boshqa farmatsetnika mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lgan qo'yildi.

"LOGIC AUTOMOTIVE AND ENGINEERING" MChJ xorijiy korxonasi dastlab avtobuslarga yiliga 5000 dona plastik va yumshoq o'rindiqlar ishlab chiqarish bilan faoliyat boshlagan. Bugun korxonada mahsulotlari va hajmi oritib bormoqda.

- Korxonamizda avtobuslar uchun sovutkich (konditsioner) va eshil ishlab chiqarish ham yo'lgan qo'yilgan, - deydi korxona sifat nazorati bo'limi mutaxassis Doston Sobirov. - Joriy yilden L60 va HD50 avtobuslari uchun xorijidan xomashyo keltirib, karkas qismalari, maxsus yuk avtomobilari uchun kuzovlar ishlab chiqarishni boshladik, plastik o'rindiqlar ishlab chiqarish to'liqligicha mahalliyashtirildi. Eshiklarni mahalliyashtirish 50 foizga, sovutkich ishlab chiqarishni mahalliyashtirish 30 foizga yetdi. Umuman, korxonamizda mahalliyashtirish darajasi 50 foizga yetdi va natijani yaxshilash borasida ish olib boryapmiz. Hozir korxonamizda mehnat qilayotgan 50 dan ortiq ishchining aksariyatinı yoshlar tashkil qiladi. Ularning mehnat bilan yiliga 10 mingta plastik o'rindiqlar, 500 dan ortiq sovutkich, 300 donagacha eshil, L60 va HD50 avtobuslari uchun 200 donadan karkas, 400 dona kuzov tayyorchash imkoniyatimiz bor. Keyinchalik TJ-45 avtobuslarining karkas va pol qismalari ishlab chiqarishni yo'lgan qo'yishni rejalashtiriyapmiz.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).





ijtimoiy ong mevasi

YOKI PORA OLIB
VA BERISHNI
TO'XTATISH
MUMKINMI?

BMT ma'lumotlariga qaraganda, korrupsiya bilan investitsiyalar oqimi o'rtaida o'zaro qarama-qarshilik mavjud ekan, ya'ni davlatda korrupsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar kirib kelish darajasi shuncha past bo'lar ekan.

Shu nuqtai nazardan, illatga qarshi kurash olib borish uchun dastlab uning kelib chiqish ildizlari aniqlash muhim.

Huquqiy manbalarda korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida 4 ta omil ko'rSATILGAN. Bular - iqtisodiy ildizlar, huquqiy sabablar, institusional sabablar va ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit.

Korrupsiyaning birinchi omili bo'lgan iqtisodiy ildizlar haqida gapirganda shuni aytish kerakki, tarixdan korrupsiya iqtisodiy hodisa sifatida tovar-pul munosabatlari bor joyda mavjud bo'lgan. Davlatda iqtisodiy faoliyatga nisbatan o'rnatilgan turli xil cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yo ruxsat berish, yo taqiqlash vakolati korrupsiyaning kurtak otishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, katta boyliklarga ega bo'lgan ba'zi ishbilarmonlar o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadiga va bozordagi raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo'lish maqsadida hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olish, ularni o'z ixtiyorlariga bo'ysundurishga harakat qiladilar.

Korrupsiyaning keyingi omili - huquqiy sabablar haqida aytganda, uning rivoji davlatdagi qonunlarning sifatiga bog'liq bo'lib, nomu-kammal qonunlar ishlamaydi va korrupsiya moyil shaxslar bundan ustamonalik bilan foydalanishga intildi.

Korrupsiyaning keyingi omili institusional sabablar bo'lib, ularga davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, hukumat faoliyatining yopiqligi, fuqarolik nazoratidan xoliligi yoki boshqacha aytganda, nottransparentligi kirdi.

Korrupsiyaning oxirgi omili ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit bo'lib, bunga aholining huquqiy bilim va madaniyat darajasi, ma'navi-

yati, uyushqoqligi va jamoatchilikning faolligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Huquqni muhofaza qilish tizimlarida qonubuzilishi, huquqbaurlarik va jinoyatchilik holatlarining mavjudligiga yo'l q'ymaslik, uni keltirib chiqaruvchi sabablar va unga imkon tug'diruvchi shart-sharoitlarning barteraf etilishiga bog'liq. Ularни quydigilarda ko'rish mumkin, ya'ni kadrlarni tanlash, lavozimiga tayinlash va tarbiyalash ishlardagi kamchiliklar, xodimlar tomonidan o'z xizmat burchini bajarishlari ustidan nazoratning talab darajasida emasligi, jinoyaga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarning tergovoldi tekshirishlari, surishtiruvning to'la, har tomonlama, xolisona o'tkazilishi, qabil qilingan qarolarning asosiliagi va qonuniyligi, ularning natijasi bo'yicha chiqariladigan xulosalarning asosiliagi va qonuniyligi ustidan sohaviy nazoratning talab darajasida amalga oshirilmasligi, xodimlarga nisbatan kelib tushgan ariza va shikoyatlarning to'la, har tomonlama va xolisona tekshirilmasligi, ularga nisbatan beparvolik, mas'uliyatsiz munosabata bo'lish, rahbarlikni amalga oshiruvchi xodimlarning vakolat darajasining yetarli bo'lmasligi.

Jamiyatdagi ijtimoiy ongning u yoki bu tarzda o'zgarishiga, odamlarning davlat va qonunlarga ishonchi paydo bo'lishida sudlarning o'z vazifalarini qay darajada amalga oshirishlari ham ta'sir ko'rsatadi.

Sudlar tomonidan to'g'ri va adolatlari qaror qabul qilinsa, fuqaro va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklansa, odamlarda jamiyatda adolat, haqiqat borligiga ishonch paydo bo'ldi. Buning aksi o'laroq, fuqaro va yuridik shaxslarning huquqlarini poymol qiladigan noqonuniy qaror qabul qilinsa, ushuq qarorni qabul qilgan suddan ja mamiyatdan norozilik kelib chiqadi.

Demak, davlat xizmatiga barkamol, yetuk, sog'lam fikrlaydigan, ma'nayati yuksak, yaxshi tarbiya ko'rgan, ma'rifatli, dunyoqarashi keng, pok vijdoni shaxslarni qabul qilish ham korrupsiyaning oldini olishda muhim omillar dan hisoblanadi.

V.AHMEDOV,
Past Darg'om tumanlararo iqtisodiy
sudi devonxonalaro mudiri.
E.BOYZOQQOV,
sudy yordamchisi.

Zafar Ahadov bilan bundan 20 yil avval tanishganman. Tuman hokimligida qishloq xo'jalik masalalari bo'yicha har kuni majlislar o'tkazilar, men ham gazeta muharriri sifatida bu yig'ilishlarda qatnashishga majbur edim.

Ana shunday «dolzarb» yig'ilishlardan birida yonimga bir yigit kelib o'tirdi. Salom-alikdan keyin, «tuman pillachilik idorasining rahbar Zafar Ahadovman» deya o'zini tanishtirdi u. Yig'ilish boshlanguncha anchra suhbatlashdik, yosh ekan, harakat qilsa yaxshi rahbar chiqadi, deb o'yildim.

Tumanda pilla topshirish rejasi bajarilgan kuni pillachilik korxonasiga borib, Zafarni pillakorlar erishgan yutuq bilan qutladim. U esa meni pilla laboratoriysi, xomashyoni saqlash, quritish jarayonlari bilan tanishtirdi. Shuningdek, soha istiqboli va muammolari, tutchilik, ipak tayyorlash haqida gapirib berdi. Yosh rahbarning intervysi gazetada chop etilgach, qo'ng'iroq qilib, rahmat aytdi.

Umidli rahbarlardan edi

Keyinchalik ham Z.Ahadov bilan ko'p marotaba suhbatda bo'ldik, u sira maqtanmas, hayotdagi muvaffaqiyatlarini yashirib, qilayotgan ishlarni odamlarning o'zlarib ilib olsin, der edi.

Yig'ilishlarda rahbarlar Zafar haqida doim yaxshi fikrlar bildirardi. Ipak qurti urug'i yetishtirish, uni tarqatish, rejani bajargan pillakorlarga o'z vaqtida pul mukofotlarini berish bo'yicha tavsiyalar berib, «Yilning birinchi hosilini bajarsak, qolgan rejalar ham amalga oshadi» deb yosh rahbarni qo'llab- quvvatlashardi.

Har yili yangi yil bayramida qadrondan ukam Zafar yodimga tushaveradi. Chunki u 1974-yilning 1-yanvarida dunyoga kelgandi. 2017-yilning 24-dekabrida bu yorug' olamni tark etdi. Agar tirik bo'lganida bu yil 51 yoshga to'igan bo'lardi. U Payariqning ko'zga ko'ringan, salohiyatlari, vazmin rahbarlaridan biri edi. U ana shu xislatlari, qiyofasi bilan xotiramda



muhirlanib qolgan.

U o'zidan yaxshi nom qoldirdi. Turmush o'rtog'i Feruza bilan ikki o'g'il va bir qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. O'qitib, baxtili insonlar safiga qo'shdii. Bugun uning ishini o'g'llari Shahzod va Xurshid davom ettirmoqda. Bajarlmay armonda qolgan rejalarini ular amalga oshirmoqda.

Azamat TOVBOYEV.

INKLYUZIV TA'LIM ning ZAMONAVIY METODLARI O'RGANILDI

Samarqand davlat chet tillar institutining professor-o'qituvchilariga inklyuziv ta'limgi tashkil etish asoslariga oid onlay o'quv kurslar tashkil etildi. Oly ta'limgiz tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan o'tkazilgan o'quv kursida inklyuziv ta'limgiz zamonaviy ta'limgizning ajralmas qismi bo'lib, nogironligi bo'lgan talabalar ham ta'limgiz olishda teng huquq va imkoniyatlarga ega ekanligi ta'kidlandi.

Bugun mamlakatimizda inklyuziv ta'limgiz rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olingan. Inklyuziv ta'limgizning asosiy maqsadasi nogironligi bo'lgan talabalarini ta'limgiz jarayoniga to'liq jalb qilish va ularga moslashtirilgan pedagogik yondashuvni qo'llashdan iborat. Bu yondashuv imkoniyati cheklangan shaxslarni ham o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Ingliz tilini o'qitishda inklyuziv metodlar qo'llanilishi, ya'ni nogironligi bo'lgan talabalar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv materiallari: Brail alifbosi, audiokito-



blar, subtitrlar bilan ta'minlangan videoedarslardan foydalanan ta'limgiz sifatining yaxhilanishiga xizmat qildi.

Professor-o'qituvchilar ushbu kursda qatnashib, inklyuziv ta'limgiz zamonaviy metodikalarini o'zlashtirdi va sertifikatlarga ega bo'lidi.

Shaxnoza RUSTAMOVA,
institut o'qituvchisi.

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OCHIQ MA'RUDA O'TKAZILADI

SamDU 2-son davolash ishi fakultetining 2-ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasini hamda SamDU pediatriya fakultetining xirurgik kasalliklar kafedrasini xodimlarning 2-ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasini 2025-yil 12-fevral kuni soat 10:00 da ichki kasalliklar fanidan 1-son davolash ishi fakultetining 616-620-guruh talabalari uchun ochiq integral ma'ruda o'tkaziladi.

Mavzu: «Yurak nuqsonlari etiologiyasi, gemodinamik buzilishlari, klinikasi, zamonaviy diagnostikasi, differensial diagnostikasi va davolash usullari».

Ma'ruzachilar: 2-ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasida v.v.b. dotsent, PhD, F.O.Xasanjanova hamda pediatriya fakultetining xirurgik kasalliklar kafedrasini v.v.b. dotsenti, PhD, A.A.Axmedov.

Manzil: 2-ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Eksper: J.A.Ismailov.

Komissiya a'zolari: G.U.Lutfullayev, F.A.Daminov.

Takif qilinganlar: 1-son davolash ishi fakultetining 616-620-guruh talabalari, magistratura rezidentlari va klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: t.f.d., professor, E.N.Tashkenbayeva hamda DSc, S.E.Mamarajabov.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 1997-yil 13-avgustda 326-K reestr raqam bilan ro'yxatga olingan Samarqand viloyati badiiy ijodkorlar ishlab chiqarish

birlashmasi xitiyoriy ravishda tugatilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladi.

Birlashmaning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand shahri, Mehriyig'o ko'chasi, 11-uy.

Birlashmaning soliq to'laydigan identifikasiyatsiz raqami (STIR): 200792158.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Boyburiyev Muradulla Tadiyevichga (2024-yil 14-apreldan vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Egamkulov Anor Egamkulovichga (2020-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Mirzayeva Sojida Raxmanovnaga (2024-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak sha-harchasi, Istiqloq ko'chasi, 13-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishanova Umid Ismatillayevna notarial idorasida marhum

Sattarovna Gilsirya Xusnulinovnaga (2023-yil 1-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishanova Umid Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudaki ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Aliyev Djurakulga (2016-yil 2-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Egamkulov Anor Egamkulovichga (2020-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hikimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak sha-harchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Nasriddinov Muindjon Marufovichga (2020-yil 1-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak sha-harchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Ishaq Hikmatovna notarial idorasida marhum Rustamov Azamga (2010-yil 3-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hikimova Ishaq Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

</

